



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-avgust

381-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati  
hokimligi

**Qashqadaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasiga Chiroqchi tumani  
“Dodiq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi “Hayitko‘l” oilaviy shifokorlik  
punktı filiali”ning amalda foydalanib kelinayotgan yer uchastkasini doimiy  
foydalanish huquqi asosida ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagи “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sон qaroriga muvofiq, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining 2024-yil 23-yanvardagi 05/118-sон buyurtma xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

### **QAROR QILAMAN:**

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiliy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiliy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasiga Chiroqchi tumani “Dodiq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi “Hayitko‘l” oilaviy shifokorlik punkti filiali”ning amalda foydalanib kelinayotgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 0,185 hektar yer maydoni doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlarningxulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan birgalikda ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining [www.qashqadaryo.uz](http://www.qashqadaryo.uz) rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

8. Ushbu qaroring bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

**Viloyat hokimi**



**M.Azimov**